



**DAVLATNING IJTIMOYIY SOHALARI SIYOSATI SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH YO'LLARI (SURXONDARYO VILOYATINING TIBBIYOT  
MUASSASALARI MISOLIDA)**

**G'oziyeva Aziza Abdusalomovna**

Termez davlat universiteti iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)  
mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7275910>

Keyingi besh yil davomida mamlakatimizda keng miqyosdagi demokratik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston" degan tushuncha real voqelikka aylanmoqda.

O'zbekiston bugun o'zining uzoqni ko'zlagan siyosati bilan mintaqamiz va jahondagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, so'z va diniy e'tiqod erkinligi, gender tenglik bo'yicha erishayotgan yutuqlarimiz nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog'lig'ini saqlashni kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta'minlash, fuqarolarning bandligi va real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisliglarida 18-oktabr kuni sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish, aholi salomatligini mustahkamlash, sifatli dori-darmon bilan ta'minlash borasidagi islohotlar tahliliga bag'ishlangan yig'ilishlaridan so'ng Surxondaryo viloyatida tibbiyot sohasiga qator islohotlar olib borilmoqda.

Xususan, aholini sifatli va arzon dori-darmon vositalari bilan ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, shoshilinch tibbiy yordamni takomillashtirish, birlamchi tibbiyot tizimini yanada yaxshilash, xususiy sektor va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni yanada rivojlantirish maqsadida davlat byudjetidan mablag' ajratildi.

Davlatimiz rahbarining Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida "Boysun-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni qabul qilinishi, avvalo, yurtimizda farmatsevtika sohasini rivojlantirish, dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, mahalliy dori-darmon vositalari bozorini o'zimizda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli preparatlar bilan to'ldirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, dori-darmon va tibbiyot buyumlarini eksport qilish hajmini yanada oshiradi.





Aholini patronaj va tizimli dispanserizatsiya bilan to'liq qamrab olish, ona va bola skriningi hamda tibbiy-genetik xizmatni yanada takomillashtirish va ushbu xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish borasida rejalar ishlab chiqilib amalga oshirilib borilmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimining xususiy sektorini rivojlantirishni takomillashtirishga oid qaror bilan xususiy tibbiyot muassasalari shug'ullanishi mumkin bo'lgan tibbiy ixtisoslik turlari ko'paytirildi. Natijada Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanida Hindiston kabi davlatlar bilan qo'shma klinikalar tashkil etilib aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatilmoqda.

Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali tashkil etildi.

Viloyatimizda tibbiy ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish, joylarda kadrlar ta'minoti yaxshilanishi maqsadida 2022 yil 1000 o'rinli bino hamda shu bino qoshida Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali klinikasi qurilib topshirilishi smetasi tasdiqlangan. Bu kabi ishlar Surxondaryo viloyatining tibbiyot muassasalaridaham kuzatilmoqda.

O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining 4 bob 2 qismi, aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga qaratilgan dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatishni qulayligi hamda sifatini oshirish, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish borasida qator chora tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilib kelinmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. 2017 yil 07-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017 yil 18-oktabr kuni sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish, aholi salomatligini mustahkamlash, sifatli





# THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES

International scientific-online conference



dori-darmon bilan ta'minlash borasidagi islohotlar tahliliga bag'ishlangan yig'ilish bayoni.

